

SUN'IY INTELEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BANKLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI

Jurayeva Sevara Zakirovna
PhD, TIU doktoranti

Shubhasiz, Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar bank tizimining barcha yo'nalishlarida katta o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Bu jarayonlarda firibgarlikni aniqlashdan tortib kredit risklarini baholashgacha, mijozlarga xizmat ko'rsatishdan tortib regulyator talablarga rioya qilishgacha bo'lgan bosqichlarni ko'rishimiz mumkin. SI samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va yangi imkoniyatlar yaratish salohiyatiga ega juda muhim tizim sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birgalikda, innovatsion texnologiyalarni joriy etishda risklarni boshqarish, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash va axloqiy me'yorlarga qat'iy rioya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratish zarur. Ushbu Sun'iy idrok modellari tranzaksiyalarning katta hajmini tahlil qilib, an'anaviy tizimlardan farqli o'laroq shubhali holatlarni yuqori aniqlikda tahlil qiladi. Jumladan, Hindistonning yetakchi banklaridan biri sun'iy intellekt yordamida fishing hujumini bor-yo'g'i 12 soniya ichida aniqlab, oldini olishga muvaffaq bo'lgan.

Ta'kidlash joiz, Sun'iy idrok va raqamli texnologiyalarning bank tizimidagi transformatsiya jarayonlari ta'siri yildan-yilga o'sib borar ekan, ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish va amaliy yechimlarni takomillashtirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Bu borada olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganar ekanmiz, jarayonga doir qisman adabiyotlar sharhini 1-rasm misolida tizimli tahlil qilishimiz mumkin bo'ladi. Ma'lumki tugun o'lchamlari undagi keltirilgan maqolaga qilingan iqtiboslar soni bo'lib, ular qanchalik katta bo'lsa, ushbu maqolalar shuncha ko'p iqtibos qilingan bo'ladi. Tugunlar rangidan nashr qilingan yillarini ham ko'rishimiz mumkin. Shuningdek maqolalar orasidagi bog'liqlik darajasini va "raqamli bank xizmatlarini takomillashtirish va bank samaradorligiga ta'siri" mavzusiga o'xshash mavzudagi maqolalar to'plamini ko'rishimiz mumkin. Tadqiqot mavzumizga doir eng asosiy o'rganilgan nuqta Mosa Muniraning[1] ilmiy tadqiqotini ko'rishimiz mumkin. Tadqiqotchi xulosasiga ko'ra, bank sohasida raqamli texnologiyalar joriy etilishi murakkab va ko'p qirrali jarayon ekanligini ta'kidlangan. Sun'iy intellekt, blockchain va mobil texnologiyalar orqali banklar operatsion samaradorligini oshirish va mijozlar tajribasini yaxshilash mumkinligi qayd etilgan.

Maqolada 2015-2025 yillar oralig'ida nashr etilgan 150 ta ilmiy maqolalarni tizimli tahlil qilgan holda, bank sektoridagi raqamli transformatsiyaning asosiy tendensiyalari, texnologiyalari va muammolari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot PRISMA metodologiyasi asosida olib borilgan bo'lib, muallif tomonidan Scopus, Web of Science va Google Scholar ma'lumotlar bazalaridan foydalanilgan. Mazkur tadqiqotda, bank tizimining asosiy ustunlari va strategiyalari sifatida quyidagi rasm ma'lumotlarini ko'rishimiz mumkin.



1-rasm. Dissertatsiya mavzusiga yaqin bo'lgan mavzudagi ilmiy maqolalarning bog'liqlik darajasi

Ushbu rasm ma'lumotlaridan shuningdek mavzuga doir boshqa ko'plab ilmiy tadqiqotlarning qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Ewim va boshqalarning[2] tadqiqotida banklarning raqamli transformatsiyaning xodimlarga ta'siri o'rganilgan. Ularning fikricha, sun'iy intellekt, blokcheyn va raqamli texnologiyalar bank operatsiyalarini tubdan yangi ko'rinishda namoyon qilib, an'anaviy ish o'rinlarining qisqarishiga va yangi malakali mutaxassislariga talabning oshishiga olib kelmoqda. Maqolada shuningdek, kelgusida bank xodimlari uchun muhim bo'lgan raqamli savodxonlik, ma'lumotlar tahlili, kiberxavfsizlik, shuningdek, muammolarni hal qilish va ijodiy fikrlash kabi zaruriy bilimlar va ko'nikmalar bo'yicha fikrlar berilgan. Bundan tashqari, DBS Bank, JPMorgan Chase va Barclays misolida banklarning xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha muvaffaqiyatli strategiyalari keltirilgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozim, raqamlashtirishni bir qator jumlar bilan ifodalashimiz mumkin, jumladan: signallar, tovushlar, tasvirlar va raqamli ramzlar bilan ifodalangan obyektlarning jamlangan jarayoni deb qayd etish ham mumkin. Sjodin va boshqa tadqiqotchi olimlar tomonidan raqamlashtirishni - Internet, katta ma'lumotlar, ijtimoiy tarmoqlar, blokcheyn va raqamli valyuta kabi ilg'or texnologiyalardan foydalanishga asoslangan ijtimoiy yangilanish deb ta'riflangan.[3]

Xulosa qilganda, Sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar, mashinali o'rganish, katta hajmdagi ma'lumotlar tahlili va blokcheyn asosida raqamli bank infratuzilmasi rivojlanishi bank xizmatlarining ommalashuviga, moliyaviy inklyuziyaning kengayishiga, kredit va to'lovlarning arzonlashishiga, tranzaksion xarajatlarning kamayishiga, aholining moliyaviy imkoniyatlarining kengayishiga olib keladi va natijada aholi farovonligini sezilarli darajada oshadi. Kelajakda bank – moliya tizimining raqobatbardoshligi nafaqat texnologiyalarni joriy etish tezligi, balki ulardan qanchalik oqilona va samarali foydalanish bilan belgilanadi. Banklar uzluksiz ta'lim madaniyatini shakllantirish va xodimlarning o'zgarishlarga moslashuvchanligini ta'minlash orqali raqamli transformatsiya sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;

1. Munira, M. S. K. (2025). *Digital Transformation in Banking: A Systematic Review Of Trends, Technologies, And Challenges*. *Strategic Data Management and Innovation*, 2(01), 78–95. <https://doi.org/10.71292/sdmi.v2i01.12>
2. Ewim C. P. M. et al. *Future of work in banking: Adapting workforce skills to digital transformation challenges //Future*. – 2021. – Т. 2. – №. 1. – С. 45-56.
3. Sjodin, D.R.; Parida, V.; Leksell, M.; Petrovic, A. *Smart Factory Implementation and Process Innovation a Preliminary Maturity Model for Leveraging Digitalization in Manufacturing*. *Res.Technol. Manag.* 2018, 61,22–31.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В РАЗВИТИИ КРАУДФАНДИНГОВЫХ ПЛАТФОРМ

Исамутдинова Гавхар

Директор Исследовательского центра по бизнесу и менеджменту при Институте ISFT

В условиях ускоренной цифровизации мировой экономики особую актуальность приобретает развитие финансовых технологий и альтернативных механизмов финансирования. Одним из наиболее быстрорастущих сегментов выступают краудфандинговые платформы, которые обеспечивают привлечение средств через цифровую среду и расширяют доступ к финансированию для стартапов, малого бизнеса и инновационных проектов. По оценке Grand View Research, мировой рынок краудфандинга в 2024 году составил 2,14 млрд долларов США, а уже в 2025 году может достичь 2,46 млрд долларов, сохраняя устойчивую восходящую динамику²⁹¹.

Одновременно с этим стремительно растет роль искусственного интеллекта в финансовом секторе. По данным MarketsandMarkets, рынок AI in Finance увеличился с 38,36 млрд долларов США в 2024 году до ожидаемых 190,33 млрд долларов к 2030 году, что отражает масштабное внедрение интеллектуальных алгоритмов в процессы анализа данных, оценки рисков и принятия решений²⁹². Эти тенденции показывают, что использование искусственного интеллекта в краудфандинговых платформах становится не просто технологическим новшеством, а важным фактором повышения их эффективности и конкурентоспособности.

В современных условиях краудфандинговые платформы выполняют не только посредническую функцию между инициаторами проектов и инвесторами, но и становятся частью более широкой финтех-экосистемы. В этой связи применение искусственного интеллекта позволяет повысить качество анализа проектов, ускорить обработку информации, улучшить взаимодействие с пользователями и расширить возможности персонализированного финансового сервиса. Именно поэтому исследование возможностей использования AI в деятельности краудфандинговых платформ представляет значительный научный и практический интерес.

²⁹¹ Grand View Research. (2025). *Crowdfunding market size, share & trends analysis report by type (reward-based, equity-based), by application, by region, and segment forecasts, 2025-2030*. Grand View Research.

²⁹² MarketsandMarkets. (2025). *AI in finance market by component, deployment mode, application, and region - Global forecast to 2030*. MarketsandMarkets.